
"Tashabbusli byudjet": Zohidonliklar orzusi amalga oshdi

✿ Yurtimizda "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida aholi vakillari o'z mahallasida infratuzilmalarni yaxshilash, maktablarni ta'mirlash, jihozlash hamda boshqa tashabbusli loyihalarga ovoz berish orqali mahalliy byudjetning bir qismini taqsimlashda faol ishtirok etishmoqda.

???? Rishton tumanida ham tashabbusli byudjet asosida olib borilayotgan ishlar hudud ijtimoiy va iqtisodiy holatini yanada mustahkamlashga xizmat qilyapti.

???? Tumandagi Zohidon mahalla fuqarolar yig'ini aholisi ham mazkur loyihaning joriy yildagi ikkinchi mavsumida faol ishtirok etib, o'z tashabbuslarining g'oliblar qatoridan o'rin olishiga erishdi.

✿ Mahalladagi tabbiy gazga muhtoj edi mahalla aholisini uzoq yillardan beri qiynab kelayotgan muammoga tashabbusli byudjet jarayoni yechim bo'ldi.

□ Qayd etib o'tish joiz, hududdagi tabbiy gaz biln ta'minlash yuzasidan bildirilgan tashabbusni amalga oshirish uchun byudjetdan 1 milliard 200 million so'm mablag' ajratildi.

✿ Zohidon MFY Zohidon ko'chasiga 4,5 km masofaga gaz tarmog'i tortib kelindi. Ayni damda fuqarolar xonadoniga gaz tarmog'ini o'lash ishlari olib borilmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2023-03-14 06:07:32